



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohobov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA).....	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Olokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOHOVCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna INTEGRATSIIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbas Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	213
L.S. Azimova	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING	218
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	223
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI	227
Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	232
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI	237
Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li	
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI	242
Raximov Azizbek Saliyevich	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY Tajribasi: AQSH MISOLIDA.....	246
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH USULLARI	250
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	257
Sharipova Shahlo Istamovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	262
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZ QONIQLASHINI OSHIRISH MEXANIZMLARI: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA	278
Aqsungul Usenova Tenel qizi, Qoraqalpoq davlat universiteti	
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
O'ZBEKISTONDA QANDOLAT MAHSULOTLARI BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	283
Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VA KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH.....	289
Bozorova Madina Raxmat qizi	
IMPROVING SERVICE QUALITY MONITORING IN SERVICE ENTERPRISES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES	294
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI	299
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	



O'ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	304
Abdusalomov Ozodbek Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	311
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI OSHIRISHDA AKT RIVOJLANISHINING O'RNI.....	315
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	322
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	326
Abdullo Sohibov SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH	331
Davronov Sanjar Ziyotovich SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	336
Ashrapova Noilaxon Niyazxanovna ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBASI TAHLILI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	340
Ochilov Baxtiyor Muminjonovich THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING.....	346
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin ugli SIRKULYAR IQTISODIYOTGA O'TISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	351
Astanakulov Olim Tashtemirovich Muxammad Id Balbaa (Muhammad Eid Balbaa) Habibe Elif Kutlugun (Habibe Elif Kutlugun) GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI FONIDA EKOLOGIK SIYOSAT VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	357
Xamzayev Abdushukur Xudoyqulovich INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES FOR UZBEKISTAN'S TEXTILE INDUSTRY: CHALLENGES, OPPORTUNITIES, AND ECONOMETRIC EVIDENCE.....	362
Aziz Kurbanovich Abdullaev Sarvarbek Allayev Erkin ugli Shavkat Asrolovich Ruziev DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES	369
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich TEMIR YO'L TRANSPORTIDA SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TAHLILI ("O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJ MISOLIDA).....	373
Barotov Baxtiyor Vaxobovich CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI	377
Muxitdinova Kamola Alisherovna TRANSPORT LOGISTIKASIDA TAVAKKALCHILIKLARNI SUG'URTALASH: O'ZBEKISTON VA AQSH TAJRIBASI ASOSIDA TAQQOSIY TAHLIL.....	381
Jabborov Islom Xusan o'g'li YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI BARQAROR BOSHQARISH.....	385
Xayrullayev Shaxram Yunus o'g'li	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SERVIS KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATI BOSHQARUVINING ZAMONAVIY MODELLARI	392
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
BIZNES JARAYONLARI MONITORINGI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI.....	398
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
SIRKULAR IQTISODIYOT KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHNI BAHOLASH KO'RSATKICHLARINI (INDIKATORLARINI) SHAKLLANTIRISH.....	403
Sharifxo'jayeva Xonzodaxon A'lo qizi	
TURIZM QISHLOQLARINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI VA INDIKATORLARI TIZIMI	408
Xudaynazarova Dilorom	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUV VA BOSHQARUV HISOB TIZIMINING AMALIYOTI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	416
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich	
DAVLAT XARIDLARI JARAYONIDA XAVFLARNI IDENTIFIKATSIYA QILISH, TASNIFLASH VA RISKKA ASOSLANGAN ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH	421
Meliboyev Askar Eshmuratovich	
DEVELOPING GARMENT MANUFACTURING STRATEGY IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION	426
Mahbuba Rahmonova	
Feruza Mansurovna Ollokulova	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSIYA SIYOSATINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	430
Bakhit Mambetnazarov	
Atabek Tureev	
SOLIQ TUSHUMLARI VA MAJBURIY AJRATMALARNING DAVLAT MOLIYASIDAGI O'RNI: 2020-2025 YILLAR TAHLILI VA ISTIQBOLI.....	434
Olimov Shukurulla Dilshodjon o'g'li	
ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА	439
Джураева Гузаль Шавкатовна	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	447
Mamirov Zamir Uzoq o'g'li	
XORIJYIY TO'G'RIDAN-TO'G'RI INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA O'ZBEKISTON TAJRIBASI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	453
Xatamov Nurbek Ochildiyevich	



XORIJIY TO'G'RIDAN-TO'G'RI INVESTITSİYALARNI JALB ETISHDA O'ZBEKISTON TAJRIBASI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Xatamov Nurbek Ochildiyevich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (XTI)ni jalb qilish jarayoni, uning asosiy muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida investitsiya muhitining institutsional va huquqiy jihatlari, davlat siyosati, soliq va bojxona imtiyozlari hamda raqamli boshqaruv vositalarining XTI jarayonlariga ta'siri o'rganilgan. Statistik ma'lumotlar va qiyosiy tahlil asosida O'zbekistonning XTI jalb etishdagi muvaffaqiyatlari va mavjud to'siqlar aniqlanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, islohotlarni davom ettirish va investitsiya mexanizmlarini modernizatsiya qilish O'zbekistonning global investitsiya maydonida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, investitsiya muhiti, iqtisodiy rivojlanish, investitsion siyosat, raqamli boshqaruv.

Annotation. This article analyzes the process of attracting foreign direct investment (FDI) in the Republic of Uzbekistan, along with its main challenges and prospects. The study examines the institutional and legal aspects of the investment climate, government policy, tax and customs incentives, and the impact of digital governance tools on FDI processes. Based on statistical data and comparative analysis, Uzbekistan's achievements in attracting FDI and existing barriers are identified. The results show that continuing reforms and modernizing investment mechanisms contribute to increasing Uzbekistan's competitiveness in the global investment market.

Keywords: foreign direct investment, investment climate, economic development, investment policy, digital governance.

Аннотация. В статье анализируется процесс привлечения прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в Республике Узбекистан, а также его основные проблемы и перспективы. В рамках исследования рассматриваются институциональные и правовые аспекты инвестиционного климата, государственная политика, налоговые и таможенные льготы, а также влияние инструментов цифрового управления на процессы привлечения ПИИ. На основе статистических данных и сравнительного анализа выявлены достижения Узбекистана в привлечении ПИИ и существующие барьеры. Результаты показывают, что продолжение реформ и модернизация инвестиционных механизмов способствует повышению конкурентоспособности Узбекистана на мировом инвестиционном рынке.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, экономическое развитие, инвестиционная политика, цифровое управление.

KIRISH

Xorijiy investitsiyalar bugungi globalashuv davrida milliy iqtisodiyotlarning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el kapitalini jalb etgan mamlakatlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribasi olib kiriladi, shuningdek, eksport salohiyati oshadi. Natijada iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashadi va aholining turmush darajasi yaxshilanadi. Shu boisdan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish nafaqat moliyaviy manbalarni kengaytiradi, balki iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini yangilash va uni jahon bozoriga chuqurroq integratsiya qilishga ham xizmat qiladi.

Xorijiy investitsiyalarning oqimini ta'minlashda davlat siyosati va amalga oshirilayotgan islohotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda yaratilgan huquqiy muhit, soliq va bojxona imtiyozlari, investitsiya kafolatlari, moliyaviy barqarorlik hamda qulay biznes muhiti xorijiy investorlar uchun eng asosiy omillar hisoblanadi. Davlat



tomonidan amalga oshiriladigan islohotlar, jumladan, iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiylashtirish jarayonlari, valyuta bozorining liberallasuvi va maxsus iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi chet el kapitalining kirib kelishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq davlat siyosatining sustligi, huquqiy kafolatlarning zaifligi yoki siyosiy-iqtisodiy beqarorlik kabi omillar investitsiya muhitini sezilarli darajada salbiylashtirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, davlat siyosati va islohotlarning xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi o'rni va ta'sirini chuqur o'rganish bugungi kunda juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, samarali siyosat va izchil islohotlar xorijiy kapital oqimini ko'paytiradi, natijada iqtisodiy taraqqiyot va mamlakatning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorijiy kapitalning mamlakatlar iqtisodiyotidagi ahamiyati ortib borgan sari, uning xalqaro harakatidagi hajmi ham tobora ortib bormoqda. Biroq so'nggi ikki yilda koronavirus pandemiyasi sababli xorijiy kapitalning xalqaro oqimida ham biroz pasayishlar kuzatildi. Bu esa mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli darajada ta'sir qildi. Shuningdek, mamlakatlar o'rtasida savdo bilan birgalikda xalqaro kapital oqimi ham birmuncha pasaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining har yili e'lon qilinib boriladigan "Jahon investitsiya hisoboti – 2023"ga ko'ra, 2022-yilda butun dunyo bo'ylab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi pandemiyadan avvalgi davrdagi tendensiyasiga yetdi, ya'ni qaytadan avvalgi ko'rsatkichni tikladi. Hisobotga ko'ra, butun dunyo bo'ylab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 1,6 trillion AQS dollariga yetdi. Bu esa pandemiya davridagi eng past nuqtaga yetgan 2020-yilga nisbatan 64 foizga ko'p degani.

Ushbu hisobotga ko'ra, 2022-yilda ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimida pasayish bo'lishi kutilgan edi. Bunga sabab sifatida jahonda bo'layotgan siyosiy voqealar, oziq-ovqat, yoqilg'i-energetika va moliyaviy sektorda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqirozlar keltirilgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining o'sishi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun rivojlangan mamlakatlarga qaraganda nisbatan sekinroq kechmoqda. Biroq shu holatda ham rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi 30 foizga o'sganligi yuqoridagi hisobotda aytib o'tilgan. Bu o'sishga Osiyo mamlakatlarida qayd etilgan yuqori o'sish sur'atlari, Lotin Amerikasi va Karib mamlakatlaridagi tiklanayotgan iqtisodiyotlar sabab qilib ko'rsatilgan. 2022-yilga kelib, rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi hajmi butun dunyo bo'yicha mamlakatlararo xorijiy investitsiyalar hajmining 50 foizini tashkil etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (XTI)ni jalb qilish jarayoni iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar asosan investitsiya muhiti, institutsional omillar, davlat siyosati hamda global iqtisodiy integratsiya masalalariga qaratilgan.

Dastlabki nazariy yondashuvlar J. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan eklektik paradigma (OLI modeli) da o'z aksini topadi. Unga ko'ra, transmilliy kompaniyalar xorijiy bozorlarga kirishda egalik (ownership), joylashuv (location) va ichkilashtirish (internalization) ustunliklariga tayanadi. Bu model XTI oqimlarini tushuntirishda klassik asoslardan biri hisoblanadi. Shuningdek, M. Todaro va S. Smith iqtisodiy rivojlanish jarayonida investitsiyalar va inson kapitalining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi, bu esa XTI ning bandlik va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini asoslaydi.

J. Sachs va D. Acemoglu – J. Robinson tadqiqotlarida esa institutsional omillar alohida urg'u bilan o'rganiladi. Ularning fikricha, iqtisodiy rivojlanish va investitsiya oqimlari davlat institutlarining sifati, huquqiy himoya darajasi va siyosiy barqarorlikka bevosita bog'liqdir. Bu yondashuv XTI jalb etishda institutsional islohotlarning hal qiluvchi ahamiyatini ko'rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida (UNCTAD, World Bank, OECD, World Economic Forum) global investitsiya oqimlari, rivojlanayotgan mamlakatlarning investitsion jozibadorligi hamda raqobatbardoshlik indeksi muntazam tahlil qilinadi. Xususan, UNCTAD "World Investment Report" hisobotlarida XTI oqimlarining global tendensiyalari, sektorlar bo'yicha taqsimoti va pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari yoritiladi. World Bank va OECD tadqiqotlarida esa investitsiya siyosatini takomillashtirish, biznes muhitini yaxshilash va davlat siyosatining samaradorligi masalalari chuqur tahlil etiladi.

MDH va O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida ham XTI masalasi faol o'rganilmoqda. Jumladan, K.A. Yusupov, F.M. Raximov, B.X. Ergashev va boshqa iqtisodchilar investitsiya muhiti, institutsional islohotlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. Ularning ishlarida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida investitsiya muhitining yaxshilanayotgani, biroq ayrim byurokratik va hududiy nomutanosibliklar saqlanib qolayotgani qayd etiladi.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va investitsiyalar integratsiyasi masalasi ham dolzarb yo'nalishga aylangan. N. Xatamov va boshqa tadqiqotchilar raqamli boshqaruv tizimlari, "yagona investitsiya oynasi" va sun'iy intellekt texnologiyalarining investitsiya jarayonlariga ta'sirini o'rganmoqda. Bu yondashuv investitsiya jarayonlarining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, XTI jalb qilish jarayoni uch asosiy omilga bog'liq: institutsional muhit, iqtisodiy siyosat va global iqtisodiy tendensiyalar. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar ijobiy natijalar berayotgan bo'lsa-da, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish zaruriyati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (XTI)ni jalb qilish jarayonini, mavjud muammolarini aniqlash va istiqbollarini baholashdir. Tadqiqot metodologiyasi bir nechta ilmiy yondashuv va usullarni o'z ichiga oladi. Birinchi navbatda, statistik tahlil orqali XTI hajmi, sektoral taqsimoti, yalpi ichki mahsulot (YIM) o'sishi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, Markaziy bank va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy hisobotlaridan olingan.

Ikkinchi yondashuv sifatida qiyosiy tahlil qo'llanilib, O'zbekistonning XTI jalb etish bo'yicha tajribasi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirildi. Bu mamlakatning raqobatbardoshligi va strategik afzalliklarini aniqlash imkonini berdi. Shu bilan birga, sifatli tahlil usuli orqali huquqiy-me'yoriy bazaning, soliq va bojxona imtiyozlarining hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining samaradorligi o'rganildi va ekspert intervyulari hamda so'rovnomalari asosida investorlar fikri tahlil qilindi.

Tadqiqotda korrelyatsion va regressiya tahlili ham qo'llanildi. Bu usul orqali XTI hajmi bilan YIM o'sishi, ish o'rinlari yaratish va ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. Shu bilan birga, ssenariy va prognoz tahlili yordamida XTI ni rag'batlantirish bo'yicha amaldagi chora-tadbirlarning istiqbolli natijalari modellash asosida baholandi va turli islohot ssenariylari asosida kelajakdagi investitsiya oqimi hamda iqtisodiy o'sish prognoz qilindi.

Tadqiqot ma'lumotlari rasmiy statistik manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar (UNCTAD, World Bank, OECD, WEF) hisobotlari hamda empirik ma'lumotlar — investorlar intervyulari va so'rovnomalarni o'z ichiga oladi. Shu tariqa, tadqiqot O'zbekistonning XTI jalb etish mexanizmlarini kompleks tarzda tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamda muammolarni aniqlab, ularni hal qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi. Tadqiqot 2015–2025 yillar davrini qamrab oladi va asosiy e'tibor XTI ning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar shaklidagi xorij kapitali dinamikasida o'zgarishlar kuzatilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, jumladan, O'zbekiston uchun ham iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishi, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilinishida xorij kapitalining o'zni juda muhim hisoblanadi. Jahon bankining eng so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, 1993–2023-yillar davomida O'zbekistonga kirib kelayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmida va uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushida o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Quyida 1-rasmda ushbu tendensiyani ko'rishimiz mumkin.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, bir nechta tebranishlarga qaramasdan, umumiy holda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimida o'sish kuzatilgan. Grafikni tahlil qiladigan bo'lsak, mustaqillikning dastlabki 10–15 yilida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimida o'sish juda past bo'lgan bo'lsa, 2006-yildan boshlab sezilarli darajadagi o'sish tendensiyasi kuzatilgan. 2006-yildagi 207,2 million AQSh dollari atrofidagi jalb qilingan xorij kapitali 2010-yilga kelib 1,66 milliard AQSh dollaridan oshdi.

Biroz pasayishdan so'ng, 2017-yilga kelib to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi taxminan 1,8 milliard AQSh dollariga yetdi. 2017-yildagi pasayishni esa Respublikada amalga oshirilgan valyuta siyosatidagi o'zgarishlar sababli izohlashimiz mumkin. 2018-yildagi 624,7 million AQSh dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya 2019-yilga kelib 3,7 barobarga o'sib, 2,3 milliard AQSh dollariga yetdi. Biroq koronavirus pandemiyasi sababli bu ko'rsatkich 2020-yilda pasaydi. 2021-yilda esa pandemiya ta'siri biroz kamaygach, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi yana avvalgi holatiga qaytib, 2,3 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.


Bu jarayon albatta o'z-o'zidan yuz bermagan, chunki oxirgi yillarda mamlakatimizda qonunchilikdagi o'zgarishlar, ijro hokimiyatining qat'iy nazorati hamda mahalliy qonunchilikdagi ijobiy islohotlar bunga sabab bo'lmoqda. Bunday holat nafaqat xorijiy investorlarni jalb qilishda, balki mahalliy tadbirkorlar faoliyatida ham bir qancha muvaffaqiyatlarga sabab bo'lmoqda, desak adashmaymiz. Mahalliy tadbirkorlarning rivojlanishi ham xorijiy investitsiyalar kabi muhim va foydali hisoblanadi. Oxirgi yillarda ish o'rinlari ko'payib, ishsizlar soni qisqarmoqda. Xorijga migratsiya oqimi ham sekinlik bilan kamayib bormoqda.

1-rasmda 24 yillik xorijiy kapital ko'rinishidagi xorijiy investitsiyalarning o'sib borish dinamikasi keltirilgan. So'nggi yillarda ozgina pasayish kuzatilmoqda. Bu esa ijobiy iqtisodiy yutuq emas, albatta.


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar shaklidagi xorij kapitalining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini tahlil

qiladigan bo'lsak, bu ko'rsatkichda ham o'sish kuzatiladi. Ushbu grafiklarni hosil qilish jarayonida dastlab ma'lumotlar to'plandi, ya'ni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining o'nta davlati bo'yicha panel ma'lumotlari Excel jadvaliga kiritildi, so'ngra Insert menyusidan grafiklar va diagrammalar bo'limi orqali tahlil amalga oshirildi.

Tahlilda ba'zi ko'rsatkichlar logarifmik shaklda qo'llanildi, bu natijalarni talqin qilishni soddalashtirish va geteroskedastiklik muammosini kamaytirishga xizmat qildi. Logarifmik bo'lmagan o'zgaruvchilar uchun koeffitsiyentlar 100 ga ko'paytirilib, ta'sir foizda ifodalandi. Avvalgi tahlillarda bo'lgani kabi, regressiya natijalarining ishonchligini ta'minlash va to'g'ri model tanlash uchun o'zgaruvchilarning individual xususiyatlari tahlil qilindi. Regressiya tahlili davomida natijalarning samaradorligini pasaytiruvchi ba'zi omillar chiqarib tashlandi.



1-rasm. O'zbekistonga kirib kelayotgan 2000–2023-yillardagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining o'sish dinamikasi ¹



2-rasm. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2000–2023-yillardagi hajmining YaIM dagi ulushi (%)²

Yuqoridagi rasmda keltirilgan grafikka ko'ra, mustaqillikning dastlabki yillarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimida pasayish kuzatilgan bo'lsa, 1995-yildan boshlab musbat ko'rinishdagi o'sish qayd etila boshlagan. 1998-yildan boshlab bir necha yillik pasayish va tebranishlardan so'ng, 2019-yilga kelib, hatto o'sish ko'rsatkichi 2018-yil bilan solishtirganda uch barobarga oshganini ko'rishimiz mumkin.

Pandemiya sababli 2020-yilda pasaygan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2021-yilga kelib yana tiklana boshladi. Jahon xo'jaligida mamlakatlararo harakatda bo'lgan xorijiy investitsiyalarning o'sish dinamika-

1 <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>. Mustaqil Davlatlari Hamdo'stligining (MDH) 10 ta mamlakatining 2000-2023-yillardagi panel ma'lumotlari.

2 <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>. Mustaqil Davlatlari Hamdo'stligining (MDH) 10 ta mamlakatining 2000-2023-yillardagi panel ma'lumotlari.



si va bunda rivojlanayotgan mamlakatlarning ham o'zni ortib borayotgani ijobiy hol hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston iqtisodiyotida ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'rinishidagi xorij kapitali hajmi, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hamda o'sish tendensiyalarini tahlil qilganimizda, bu ko'rsatkichlarda ijobiy o'zgarish kuzatilganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, albatta, iqtisodiy o'sishga va makroiqtisodiy vaziyatga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (XTI)ni jalb qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, XTI hajmining o'sishi yalpi ichki mahsulot, ishlab chiqarish salohiyati va yangi ish o'rinlari yaratish bilan ijobiy bog'liqdir. Shu bilan birga, O'zbekistonning XTI jalb etishdagi muvaffaqiyatlari institutsional islohotlar, huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, soliq va bojxona imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda raqamli boshqaruv vositalarini samarali qo'llash orqali erishilgan.

Biroq, tadqiqot jarayonida quyidagi muammolar aniqlandi: investorlar uchun ma'lumotlarning yetarli emasligi, byurokratik to'siqlar, sektoral imtiyozlarning nomuvofiqligi va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar. Ushbu to'siqlar XTI oqimini to'liq jalb qilish imkoniyatini cheklaydi va global raqobatbardoshlikni susaytiradi.

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi: normativ-huquqiy barqarorlikni ta'minlash, XTI faoliyatini tartibga soluvchi qonun va farmonlarning barqaror ijrosini monitoring qilish, investorlar huquqlarini himoya qiluvchi institutlarni mustahkamlash; soliq va bojxona rag'batlarini maqsadli qo'llash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan va eksportga yo'naltirilgan loyihalarni ustuvor qo'llab-quvvatlash; davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, transport, energetika, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida DXSh loyihalarini ko'paytirish; raqamli investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish, "Yagona investitsiya oynasi" tizimini takomillashtirish va XTI jarayonlarida sun'iy intellekt va Big Data asosidagi tahliliy vositalarni qo'llash; hududiy investitsiya siyosatini differensiallashtirish, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan hududlarga qo'shimcha rag'batlar berish; inson kapitali va innovatsion muhitni rivojlantirish orqali investitsiyalarning uzoq muddatli samaradorligini oshirish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish O'zbekistonning global investitsiya maydonida raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" O'RQ-598-sonli Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4664142?ONDATE=22.02.2024%2000>
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" O'RQ-537-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4329270>
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining investitsiya faoliyatini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining investitsiya va tadbirkorlik faoliyatiga oid qarorlari.
8. Абдуллаев А.Ш. Инвестиционная политика и экономический рост. – Ташкент: Экономика, 2018.
9. Эргашев Б.Х. Инвестиционный климат и механизмы его совершенствования в Узбекистане // Иқтисод ва молия. – 2020.
10. Юсупов К.А. Иностранные инвестиции и экономический рост: теоретические и практические аспекты. – Ташкент, 2019.
11. Рахимов Ф.М. Институциональные реформы и инвестиционная привлекательность экономики // Экономический вестник Узбекистана. – 2021.
12. Ниязов А.А. Давлат-хусусий шериклик mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi. – Toshkent, 2020.
13. Хатамов Н. Raqamli iqtisodiyot va investitsiya jarayonlari. – Toshkent, 2021.
14. Dunning J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. – London: Addison-Wesley, 1993.
15. Todaro M., Smith S. Economic Development. – New York: Pearson, 2020.
16. Sachs J.D. The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time. – New York: Penguin Press, 2005.
17. Acemoglu D., Robinson J. Why Nations Fail. – New York: Crown Publishers, 2012.
18. UNCTAD. World Investment Report. – Geneva, 2022–2024.
19. World Bank. World Development Report. – Washington, DC, 2022–2024.
20. OECD. Policy Framework for Investment. – Paris, 2023.
21. World Economic Forum. Global Competitiveness Report. – Geneva, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>